

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING CREATIVE THINKING IN STUDENTS  
TALABALARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI  
ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ШКОЛЬНИКОВ

Shodiyeva Rayhon Saydullayevna

Alfraganus university nodavlat oliy ta'lim

tashkiloti katta o'qituvchisi

**ABSTRACT**

This article presents an analysis of research on creative thinking, the study of the characteristics of creativity by scientists, the importance of developing creative thinking skills in students, and collaborative creative thinking. In addition, for the student, active mastering of professional and creative activity, its effective implementation not only requires the development and integration of skills and qualifications, the development of individual styles and methods of performing professional activity, but also the mastery of the methodology of professional creativity, the development of creative thinking. It is thought to include.

**Keywords:** formation of creativity, creative approach, pedagogical process, Creative thinking, "investment theory of creativity", creative potential

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada kreativ fikrlash, kreativlik xususiyatlarining olimlar tomonidan o'rganilishi, talabada kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishning ahamiyati, hamkorlikdagi kreativ fikrlash borasidagi tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Bundan tashqari talaba uchun kasbiy va ijodiy faoliyatni faol o'zlashtirish, uni samarali amalga oshirish nafaqat ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va integratsiyalashuvini, kasbiy faoliyatni bajarishning individual uslublari va usullarini ishlab chiqishni, balki kasbiy ijod metodologiyasini o'zlashtirishni, ijodiy fikrlashni rivojlantirishni ham o'z ichiga olishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kreativlikni shakllantirish, ijodiy yondashuv, pedagogik jarayon, Kreativ fikrlash, «kreativlikning sarmoya nazariyasi», kreativ salohiyat

**АБСТРАКТНЫЙ**

В данной статье представлен анализ исследований творческого мышления, изучения особенностей творчества учеными, важности развития навыков творческого мышления у учащихся, коллективного творческого мышления. Кроме того, для активного овладения студентом профессионально-творческой деятельностью, ее эффективной реализации требуется не только развитие и интеграция умений и навыков, освоение индивидуальных стилей и способов выполнения профессиональной деятельности, но и овладение методикой профессиональной деятельности. профессиональное творчество, развитие творческого мышления. Думается включить.

**Ключевые слова:** формирование креативности, творческий подход, педагогический процесс, креативное мышление, «инвестиционная теория креативности», творческий потенциал.

### KIRISH

Jahon miqyosida ilmiy tadqiqotlar va amaliy loyihalash faoliyatiga yo'naltirilgan innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim tizimini rivojlantirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shuningdek, ijodiy yondashuviga o'quv jarayonining asosiy paradigmasi sifatida qarash hamda dunyoning umumiy manzarasi bilan uyg'unlashtirish orqali talabalarning fikrlash qobiliyati, muammolarni his qilishga nisbatan sezgirlikni oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yuzaga kelgan hozirgi vaziyat yosh avlodni ijtimoiy tarbiyalashning yangicha modellarini ishlab chiqishni va tatbiq etishni taqozo etadi. Ayniqsa, talabalarni ijtimoiylashtirishning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish orqali talabalarda kreativlikni shakllantirish muhim masalalardan biridir. Shu munosabat bilan turli soha olimlarining e'tibori pedagogik jarayon sharoitida talaba shaxsining kreativ salohiyatini ochish va rivojlantirish muammosiga qaratilgan. Demak, zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishning yangi paradigmatic asoslarini ishlab chiqish zarurati tug'iladi.

Kreativ fikrlash dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib, aniq, ijtimoiy hamda gumanitar fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalardan berishdan kengroq tushuncha bo'lib, u insonga murakkab sharoitlarda samarali natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Dunyoda mavjud barcha muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezilmoqda, bu esa, o'z navbatida, kreativ fikrlashning ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

**MUHOQAMA VA NATIJALAR.** Lotinchada Kreativlik (ingl. "create" – yaratish, "creative" – "yaratuvchi", "ijodkor") – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatidir (Кузмина Н.В, 2007. с.14)

Amerikalik psixolog Avraam Maslouning fikricha, bu har bir kishiga xos bo'lgan, lekin mavjud tarbiya, ta'lim va ijtimoiy amaliyot tizimi ta'sirida ko'pchilik tomonidan yo'qolgan ijodiy yo'nalish. M.M.Zinovkina kreativlikka o'zgacha yondoshuvni ishora qiladi. Texnologiya va ixtirolar tarixini o'rganish, atoqli olim va ixtirochilarning ijodiy hayoti tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning barchasi yuqori (o'z davri uchun) fundamental bilimlar bilan bir qatorda maxsus bilimlar ombori yoki algoritmik fikrlash, ma'lum sohaga oid bilimlar, evristik usullar va texnikalarga ega bo'lishgan (Zinovkina M. M., 2007. с. 34).

Ingliz psixologi E.P.Torrans kreativlikning quyidagi jihatlarini ilgari surgan: - muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; - taxminlarni tekshirish va o'zgartirish; - qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; - muammoni hal qilishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan sezgirlikni ifodalash (Torrance E.R., 1980. p.100).

Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi ayni haqiqat, shu bilan birga u universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni

har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Ta'lim sohasidagi mutaxassislar va psixologlarning fikriga ko'ra, ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan kreativ fikrlash bir qator boshqa shaxsiy ko'nikmalarning ham rivojlanishiga olib keladi. Shular jumlasiga metakognitiv qobiliyat, insonlar bilan muomala qilish va shaxsning o'zini yaxshiroq anglash ko'nikmalari, muammoni hal etish ko'nikmalari kiradi. Shunday ekan talaba shaxsi kamoloti, ta'lim olishdagi hamda kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati va jamoatchilik orasidagi obro'si ham ularning kreativ fikrlash ko'nikmasiga bog'liqdir.

Ta'limning asosiy vazifasi talabada jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi shart bo'lgan muhim ko'nikma bo'lib, bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari «XXI asr» ko'nikmalariga ega mutaxassislarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi talaba kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ham muvaffaqiyatli faoliyat olib bora olishi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. Talabada kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashib borayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanibgina qolmaydi, balki ular uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, shu jumladan ijodiy talantlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga kreativ fikrlash talabalarda ham jamiyatning bir bo'lagi ekanligi va jamiyat taraqqiyotiga o'z ulushini qo'sha olishi mumkinligi borasidagi hissiyotni shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Shuningdek, kreativ fikrlash talabalarning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab-quvvatlaydi (Beghetto R., 2007. p. 34). Talabaning xayoli va qiziquvchanligi ta'lim jarayonida qo'l keladi: ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta'lim maqsadlari kontekstida ham.

Har qaysi boshqa ko'nikma kabi, kreativ fikrlash amaliy va individual yondashuvlar orqali rivojlantirilishi mumkin. Talabalarga ayrim fanlardagina kreativ fikrlashni rivojlantirish orqali ularning barcha fanlarda kreativ fikrlashini paydo qilish mumkin. Kreativ fikrlash bilim berishga qaratilgan dars mobaynida ko'r-ko'rona yodlash o'rniga tadqiqot va ixtironi qo'llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantirilishi mumkin. Bunda professor o'qituvchilar talabalardagi kreativ fikrlarni farqlay olishlari, bunday fikrlashga mos shart-sharoitlarni yaratishlari va o'zlari ham talabalarga fikrlashda ko'proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni uddalashi kerak. Kreativ fikrlash qay tariqa vujudga kelishi borasidagi puxtaroq tasavvur, o'z navbatida, o'qituvchilarga ta'lim jarayonida talabalarda ijodiy g'oyalar «inkubatsiya» bo'lishi uchun muayyan vaqt talab etishini anglashga yordam beradi.

Umumiy olganda kreativlik – layoqat, jarayon va muhit o'rtasidagi o'zaro munosabat bo'lib, u orqali shaxs yoki guruh ushbu ijtimoiy kontekst uchun ham yangi, ham foydali bo'lgan salmoqli mahsulotni yaratishidir. Ijodiy maqsadlarni ro'yobga chiqarish kreativ fikrlashni taqozo etadi, lekin shu bilan birga aqliy salohiyat, soha borasidagi bilim va san'atkorlik talanti kabi kengroq va maxsus ko'nikma va qobiliyatlarni ham zarur bo'ladi. Masalan, san'at durdonalari yoki texnologik kashfiyotlarni yaratish bilan bog'liq buyuk ijodkorlikda kreativ fikrlashdan tashqari salmoqli talant, chuqur bilim, muayyan sohada tinimsiz mehnat hamda jamiyat tomonidan



ushbu mahsulot qiymatga ega ekanligi haqidagi e'tirof ham talab etiladi. Va aksincha, kichik yoxud kundalik kreativlik (masalan, fotojurnalda rasmlarni mahorat bilan joylashtirish; oziq-ovqat qoldiqlaridan yangi taomni hosil qilish yoki ishxonadagi murakkab muammoga ijodiy yechim topish kabi ijodiy fikrlashga qodir deyarli barcha insonlarga zarurdir.

Kreativlik sohaslarini o'rgangan amaliy tadqiqotlarning batafsil meta-tahliliga ko'ra, matematika ilmiy sohasi doimo boshqa ijodkorlik sohalardan yaqqol ajralib turadi. Ushbu meta-tahlil barcha tadqiqotlarda kreativlik sohalari Kaufman va Baer (Kaufman, J. and J. Baer, p.143-145), tomonidan aniqlangan amaliy ijodkorlik, empatiya/munosabat va matematika/ilm-fan sohasidagi ijodkorlikka bo'linishi kabi umumiy bir qonuniyat kuzatilayotganini ko'rsatmoqda. «Tutash yondashuvlar» yoki «Komponent nazariyalari» kreativ fikrlash va kreativlikni ko'p qirrali fenomen sifatida ta'riflaydi (Lucas B, 2016. p. 278-290).

Amabile nazariyasi har qanday shaxsning ijodiy faolligi uchun to'rt zaruriy qismni sanaydi: sohaga bog'liq qobiliyatlar, kreativlikka bog'liq jarayonlar vazifa borasidagi ishtiyoq (motivatsiya) hamda mos, qulay sharoit (Amabile, T. and M. Pratt 2016). Bu modelga ko'ra, umuman olganda, ijodiy sermahsullik bazaviy resurs yoxud xomashyo (masalan, sohaga bog'liq qobiliyatlar, jumladan, bilim va texnik ko'nikmalar) bo'lib, ushbu xomashyoni yangicha usulda birlashtirish uchun kerak bo'ladigan qobiliyatlar (ya'ni, kreativlikka bog'liq jarayonlar, jumladan, tayyor qo'llanmalardan voz kecha olish kabi tegishli kognitiv stillar) hamda ushbu amallarni oshirishga ishtiyoqni (ya'ni, motivatsiya) taqozo etadi. Bu to'rt komponent ham turg'un, ham takomillashtirish va muhitga moyil bo'lgan komponentlardan iborat.

Sternberg va Lubartning «kreativlikning sarmoya nazariyasi»da kreativlik uchun to'rt alohida, lekin chambarchas bog'liq resurs talab etiladi deb aytadi, ular: intellektual qobiliyatlar (tahlil va sintez qilish kabi); sohaga oid bilim, muayyan «fikrlash tarzi» (yangicha fikrlash kabi); motivatsiya; muayyan shaxsiy xislatlar hamda kreativ g'oyalar uchun mos va qulay atrof-muhit (Amabile, T. and M. Pratt, 2016). Sternberg keyinroq ushbu resurslar tutashganligining ahamiyati borasida fikr bildirgan. Uning aytishicha, ijodiy yondashuv har bir komponentning oddiygina qo'shilishi emas, balki undan ancha murakkabroq jarayondir. Komponentlar o'rtasidagi o'zaro munosabat turli natijalarni beradi: masalan, aksar komponentlarning yuqori darajasi ijodiy salohiyatga multiplikativ ta'sir ko'rsatishi mumkin, va aksincha, har bir komponent uchun pastki chegara mavjud bo'lib, undan o'tilgan taqdirda, boshqa komponentlardagi yuqori darajalardan qat'i nazar, hech qanday ijodiy mahsulotni kutib bo'lmaydi.

**ASOSIY QISM.** Kreativ fikrlashni qo'llab-quvvatlashi yoki unga to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan talabning atrof-muhiti, ya'ni «ijtimoiy yordamchi omillar» guruhida shakllangan madaniyat, ta'lim tizimining ta'limga yondashuvi va umumiy ijtimoiy muhitlarning barchasi talabning kreativ fikrlashiga ta'sir o'tkazadi va kreativ fikrlash yo'lida yoki to'siq, yoki madad bo'lishi mumkin. Ushbu ijtimoiy yordamchi omillar madaniy qadriyatlar ostida shakllanadi, bu esa, o'z navbatda, talabning shaxsiy yordamchi omillari qanday taraqqiy etishiga ta'sir qiladi.

Talabning soha bo'yicha tayyorgarligi deganda shaxsning qaysidir sohada muvaffaqiyatli ijodkorligi uchun o'sha sohada muayyan bilim va tajribaga ega bo'lishi taqozo etilishi tushuniladi. Bu yerdagi faraz shundan iboratki, shaxs sohaga oid qanchalik ko'proq

ma'lumotga ega bo'lsa, ma'lumotlar orasidagi bog'liqliklarni qanchalik yaxshi anglasa, uning ijodkorlik ehtimoli shunchalik ortadi (Schwartz, D., 2005. pp. 1-51.). Lekin bu bog'liqlik kreativ fikrlashning kichik, kundalik ifodasida to'g'ridan to'g'ri amalga oshmasligi mumkin. Sohaga oid bilim yoki qobiliyatlarning muayyan darajasi ijodiy fikrlash uchun foydali bo'lishi umum qabul qilingan fikr bo'lsa ham, bilim yoki qobiliyatdan foydalanishning odatiy ko'rinishi ijodiy fikrlash uchun to'siq bo'lishi ham mumkin.

Kreativ shaxslarning fe'l-atvorini va yurish-turishini o'rganadigan amaliy tadqiqotlar, odatda, savolnoma instrumentlaridan foydalanadi va kreativlik nisbatan barqaror va muntazam fe'l-atvor ekanligidan kelib chiqadi. Ushbu tadqiqotlar aksar ijodkor insonlarga bir qator moyilliklar xos ekanligini, ayniqsa, ochiqlik – ham tajribaga ochiqlik, ham intellektga ochiqlik – ular orasida eng keng tarqalgan xarakter ekanligini namoyon qilmoqda. Taxmin qilinishicha, bu xususiyat «aqliy (misol uchun xayolot, tasavvur), emotsional (misol uchun qiziquvchanlik, ichki motivatsiya) va xulq-atvordagi (masalan, komfort zonasidan chiqish, yangi narsalarni faol sinab ko'rish) ko'rinishlardan iborat xarakterlarning keng turkumidir». Bir qator tadqiqotchilar qiziquvchanlik hissini muvaffaqiyatli ijodiy faoliyat uchun muhimligini ta'kidlagan. Shunga bog'liq, lekin butkul farqli fe'l bo'lgan «intellektga ochiqlik» ham ijodiy yutuqlarni bashorat qilishda qo'l keladi. Intellektga ochiqlik deganda, mavhum va semantik ma'lumotni asosan mantiqiy fikrlash vositasida aniqlash tushuniladi. Tajribaga ochiqlikdan farqli o'laroq, intellektga ochiqlik, ayniqsa, ilmiy ijodkorlik bilan cham barchas bog'liqdir.

Ta'lim jarayonida talabani ijodiy fikrlashini qo'zg'atishga qaratilgan xatti-harakatlar shu sababli uning o'z ijodiy salohiyatiga ishonch, sabr va qat'iyatini kuchaytirishga qaratilishi lozim.

Zamonaviy tadqiqot tobora kreativ fikrlashga individual yumush emas, ko'proq ommaviy xatti-harakat sifatida qaramoqda. Bunga yangi bilim yaratishda guruhlarning faoliyatini tahlil qilishni misol keltirish mumkin. Kreativ fikrlashni bunday anglashda ilgari surilgan asosiy fikr, ijodiy faoliyat inson va uning muhiti, jumladan, ushbu muhitdagi boshqa insonlar orasidagi munosabatning natijasi ekanligidir. Bu yo'sinda, kreativ fikrlash va faoliyat doimiy «bajarish» (muhitga qaratilgan xatti-harakat) va «duchor bo'lish» (muhitning aks harakatini qabul qilib olish) sikli sifatida shakllantirilgan. O'zaro hamkorlik natijasida guruhlar alohida insonning qobiliyati yetmaydigan murakkab muammolarga yangicha yechimlarni taklif etishi mumkin.

Hamkorlikdagi kreativ fikrlash borasidagi tadqiqotlarga ko'ra, guruh a'zolari maqsadli, opportunistik vaziyatdan kelib chiquvchi va tartibsiz murakkab jarayonlarda ishtirok etgan holda, maqsad qo'yadi va uning ro'yobga chiqishini kuzatadi, bunda guruhning turli a'zolari o'zining kuchli tarafiga asoslanib, guruhda yetakchilikni oladi. Xususan, muzokara va badiha usulidagi olib boriladigan jarayonlarda qatnasha olish yangi g'oyalarni yaratishga zamin tayyorlaydi. Hamkorlik natijasida, faoliyat g'oya yaratish va takomillashtirish bilan bog'lanadi, g'oyalardagi kamchilik tuzatiladi, boshi berk muammolarni aylanib o'tish yo'llari kashf etiladi. Hamkorlikda ishlay olish qobiliyati ta'lim kontekstida ham bilim yaratishning muhim qismidir. Talabalar boshqalarning g'oyalarni kashf etib, ular asosida yangi g'oyalarni yaratishi va shu orqali hamkorlikda yangi bilimlarni yaratishida ta'lim muassasasi qulay zamin sifatida xizmat qiladi.

Soha va vazifaga aloqador bilim va tajriba kreativ fikrlashning muhim zaruriy shartidir. Ijodiy fikrlashning ishonchli va asosli baholash tizimini yaratish maqsadida, topshiriqlar talaba qiziqishlari va intilishiga aloqador bo'lishi zarur; mavjud bilim hech qanday rol o'ynamaydigan, o'ta mavhum vazifalardan iborat topshiriqlarni yaratish ma'nisizdir. Masalan, vazifa ssenariysi o'ta murakkab bo'lsa va buning natijasida nima qilishlari kerakligini yoki nimaga qodir ekanliklarini anglamagan talabalar ijodiy yondashishdan voz kechishlari mumkin. Kreativlikning turli tutash nazariyalaridagi kreativ fikrlashning asosiy drayveri sifatida ishtiyoqga (motivatsiyaga) berilgan urg'uni hisobga olsak, vazifaga kirishib ketish va ishtiyoq talabani kreativlidi ko'rsatkichlarga ta'siri salmoqli bo'lish ehtimoli katta. Ijodiy faollikning barcha jabhalarida ishtiyoqning ta'siri yaqqol ko'rinib turadi: ilmiy jabhada vazifaga kirishib ketish kreativ fikrlashni qo'llab-quvvatlaydi, chunki u narsalar qanday ishlashini kashf etishni rag'batlantiradi va yechim yoki kashfiyot topilguncha faoliyatni davom ettirishni qo'llab-quvvatlaydi (Mansfield va Busse, 1981); ishtiyoq, shuningdek, yozma ifodalashdagi kreativ fikrlashni qo'llab-quvvatlaydi (Amabile, 1985); ijtimoiy muammoni yechish domenida ham mavjud muammo yoki o'zgalarning ehtiyojlari haqida ko'proq bilish ishtiyoqi yangicha va samarali yechimlar taklif etish bilan chambarchas bog'liq.

Umuman olganda, ijodiy fikrlash jarayonining yakuniy mahsulini avvaldan bilib bo'lmaydi. Shuningdek, ilmiy vazifalarda ham simulatsiyalashtirilgan laboratoriya muhiti orqali talabalar turli jihozlar bilan, qonuniyatlarni va o'zgaruvchilar orasidagi munosabatlarni aniqlash maqsadida, tajbiralari o'tkazishlari mumkin bo'ladi.

### XULOSA

Rivojlangan kreativlik shaxs ijodkorligining muhim tarkibiy qismidir. U shaxsning kognitiv maqsadga erishish, boshlangan ijodiy ishni davom ettirish, bilish faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, aqliy harakatlarni rejalashtirish va ketma-ketlashtirish, maqsadga erishish variantlari va usullarini izlash istagida ifodalanadi.

Shuningdek shaxsda stenik tuyg'ular (kognitiv va ijodiy faoliyatdan quvonch hissi, ixtirolar jarayonida qiyinchiliklarni yengishga tayyorlik, kognitiv yoki ijodiy maqsadga erishishdan g'ururlanish, biror narsa o'ylab topish imkoniyatidan zavqlanish, ijodiy ish boshlanishidagi optimistik faollik, uning ijobiy natijasini kutish, muvaffaqiyasizliklar holatida xotirjamlik va boshqalar) ham hosil bo'ladi.

Inson aql-zakovati sohasidagi mutaxassislar ijodiy jarayonni ta'minlash uchun konvergent (mantiqiy, ketma-ket, chiziqli) va divergent (yaxlit, intuitiv, aloqador) tafakkurning kombinasiyasi zarur deb hisoblaydilar. Tafakkur xususiyatlarining bunday kombinasiyasi natijasi ongning ravonligi va moslashuvchanligi, shuningdek, o'ziga xoslik, hukmning aniqligi bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

Talaba uchun kasbiy va ijodiy faoliyatni faol o'zlashtirish, uni samarali amalga oshirish nafaqat ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va integratsiyalashuvini, kasbiy ishni bajarishning individual uslublari va usullarini ishlab chiqishni, balki kasbiy ijod metodologiyasini o'zlashtirishni, ijodiy fikrlashni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Bu jarayonning sur'ati va traektoriyasi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning o'z faoliyati va ijodiy fazilatlarini, shuningdek, sharoitlar, hayotiy voqealar va kasbiy jihatdan aniqlangan omillar bilan belgilanadi. Ijodkor shaxsni shakllantirish va ijodiy ta'lim o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjuddir.



Asosiysi, doimiy o'zgarib turadigan tashqi va ichki dunyo, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va faoliyat mazmuniga mos keladigan kreativ shaxsning shakllanishi va rivojlanishi inson ontogenezining butun davri - tug'ilishdan to umrining oxirigacha davomiylik, uzluksizlik va qamrab olishni talab qiladi.

Buning uchun ta'limda quyidagi omillar muhim hisoblanadi: talabalarga beriladigan masalalarning ko'p xilligi va ularni hal etishning variativligi, o'z mahoratining darajasi va tavsifini hamda uni rivojlantirish mumkinligini tushunishi, uni takomillashtirish xohishining mavjudligi, yangi yechimlar zarurligini tushunishi va unga psixik tayyorgarlik hamda uni amalga oshirishga bo'lgan ishonch.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Amabile T. and M. Pratt (2016), The dynamic componential model of creativity and innovation in organizations: Making progress, making meaning, <http://dx.doi.org/10.1016/j.riob.2016.10.001>.
2. Beghetto R. and J. Kaufman (2007), «Toward a broader conception of creativity: a case for &quot;mini-c&quot; creativity», *Psychology of Aesthetics, Creativity, and the Arts*, Vol. 1/2, pp. 73-79, <http://dx.doi.org/10.1037/1931-3896.1.2.73>.
3. Zinovkina M. M. NFTM-TRIZ: Creative education of the XXI century (Theory and practice): Monograph. M., 2007.
4. Lucas, B. (2016), «A five-dimensional model of creativity and its assessment in schools», *Applied Measurement in Education*, Vol. 29/4, pp. 278-290, <http://dx.doi.org/10.1080/08957347.2016.1209206>.
5. Sternberg, R. and T. Lubart (1995), *Defying The Crowd: Cultivating Creativity In A Culture Of Conformity*, Free Press, New York, NY, <http://psycnet.apa.org/record/1995-97404-000> (accessed on 28 March 2018).
6. Torrance E.R. *Creativity and futurism in education: Retooling Education 1980*. Vol 100 P
7. Schwartz, D., J. Bransford and D. Sears (2005), «Efficiency and Innovation in Transfer», *Transfer of learning from a modern, multidisciplinary perspective*, Vol. 3, pp. 1-51.
8. Hennessey, B. and T. Amabile (2010), «Creativity», *Annual Review of Psychology*, Vol. 61, pp. 569-598.